

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**



**5311900 - “NEFT VA GAZ KONLARINI ISHGA
TUSHIRISH VA ULARDAN FOYDALANISH”
bakalavriat ta'lif yo'naliqidagi bitiruv malakaviy ishini bajarish
bo'yicha**

Uslubiy ko'rsatma

Toshkent – 2016

Mualliflar: Agzamov A.X., Zakirov A.A., Qarshiyev A.X. **5311900** – “Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish” ta’lim yo‘nalishidagi bitiruv malakaviy ishini bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma – Toshkent: ToshDTU, 2016, – 16 b.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi, vazifasi, bajarish va rasmiylashtirish tartibi, ularga qo‘yiladigan talablar, himoya qilish va baholash mezonlari keltirilgan.

Uslubiy ko‘rsatma talabalar, bitiruv malakaviy ishlarni rahbarlari va Davlat attestatsiya komissiyalari uchun mo‘ljallangan.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti Ilmiy uslubiy kengashining qaroriga muvofiq chop etildi

Taqrizchilar:

E.K. Irmatov – “O‘zLITIneftgaz” AJ bosh ilmiy xodimi, t.f.d., prof.

B.SH. Akramov – ToshDTU “Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish” kafedrasi professori, t.f.n.

1. Bitiruv malakaviy ishini bajarishning maqsad va vazifalari

Bitiruv malakaviy ishini bajarish oliy ta’lim muassasasi bakalavriatida talabalarni o‘qitishning yakuniy bosqichidir.

Bitiruv malakaviy ishini bajarishdan maqsad:

- ta’lim bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish, olingan bilimlarni muayyan ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy vazifalarni hal etishda qo‘llash;

- ijodiy ishlash, hal etilayotgan masalaning (muammoning) qo‘yilish jarayonidan boshlab, uni to‘la nihoyasiga yetkazish bo‘yicha qaror qabul qilishda bo‘lgan mas’uliyatni his etishga o‘rgatish;

- zamonaviy ishlab chiqarish, iqtisodiyot, texnika va fanlarni rivojlanishi sharoitida talabalarni mustaqil ishlashga tayyorgarligini ta’minlashdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishlarini vazifalari “Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish” ta’lim yo‘nalishida o‘tilgan mutaxassislik fanlari, hamda talaba tomonidan bajarilishi rejalashtirilgan texnologik, iqtisodiy va texnik ishlanmalar, hisoblash va tahlil natijalari bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Ushbu ta’lim yo‘nalishini o‘zigi xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bir tadqiqot obyektida (kon, jarayon va sh.k.) turli vazifalarni hal etishga qaratilgan bir nechta bitiruv malakaviy ishlar bajarilishi mumkin.

2. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi muammoning zamonaviy holatini va iqtisodiyot, ishlab chiqarish, texnikada fanning istiqboliy rivojlanishini aks ettirishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishlari mavzusi mutaxassis chiqaruvchi kafedra tomonidan belgilanadi va oliy ta’lim muassasasi yoki fakultetning Ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi, hamda har o‘quv yili boshida qayta ko‘rib chiqiladi.

Bitiruv malakaviy ishlari mavzusining yillik ro‘yxati bitiruv amaliyoti boshlanishiga qadar yoki bitiruv kursining boshida e’lon qilinadi.

Mavzu qisqa va aniq ifodalanib, bakalavrдagi malakaviy bitiruv ishida bajarilishi rejalashtirilayotgan tadqiqotning asosi yoritilishi kerak.

Talabalarga (reytinglari bo‘yicha kamayish tartibida) bitiruv malakaviy ishining mavzularini tanlash huquqi beriladi. Talaba yoki

talabaning o‘qishi uchun to‘lov-kontrakt mablag‘ini to‘layotgan buyurtmachi zaruriy asoslar bilan bitiruv malakaviy ishlar mavzusi bo‘yicha o‘z variantlarini taklif etishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi va rahbarni talabaga biriktirish kafedraning taqdimnomasi bo‘yicha Rektorning buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.

Ish rahbari, bitiruv malakaviy ishining mavzusiga muvofiq talabaga bitiruv malakaviy ishga tegishli materiallarni to‘plash bo‘yicha (jumladan, malakaviy amaliyot o‘tkazish davrida ham) topshiriq beradi.

3. Bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbarlik qilish

Bitiruv malakaviy ishlariga rahbarlar ushbu oliy ta’lim muassasasining professor-o‘qituvchilari yoki ilmiy xodimlari, boshqa muassasa va korxonalarining yuqori malakali mutaxassislari safidan tayinlanadi.

Bitiruv malakaviy ishi rahbari:

- topshiriq beradi;
- bitiruv malakaviy ishining bajarilish jadvalini rejalashtiradi; asosiy adabiyotlar, ma’lumot va arxiv materiallarini hamda mavzu bo‘yicha boshqa manbalarni tavsiya etadi;
- talabalar bilan muntazam ravishda maslahatlar o‘tkazadi;
- bitiruv malakaviy ishining bajarilish jarayonini nazorat etadi;
- talaba bajargan bitiruv malakaviy ishining sifati va muallifligiga javob beradi, mavzularning qaytarilishiga yoki boshqa manbalardan aynan ko‘chirilishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Bitiruv malakaviy ishi rahbarining taklifiga binoan, kafedra bitiruv malakaviy ishiga rahbarlik qilishga ajratilgan vaqt byudjet hisobidan ishning ayrim bo‘limlari bo‘yicha konsultantlarni taklif etishi mumkin. Bitiruv malakaviy ishining bo‘limlari bo‘yicha konsultant (maslahatchi)lar etib, oliy ta’lim muassasasining professor-o‘qituvchilari, ilmiy xodimlari hamda boshqa muassasa va korxonalarining yuqori malakali mutaxassislari tayinlanishi mumkin. Konsultantlar talaba bajargan ishning muvofiq qismini tekshiradi, tegishli ko‘rsatmalar beradi.

Mutaxassis chiqaruvchi kafedra bitiruv malakaviy ishiga qo‘yiladigan talablar hajmini belgilagan holda bitiruv malakaviy ishini bajarish bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalarni ishlab chiqadi va ular bilan talabalarni ta’minlaydi.

Bitiruv malakaviy ishi berilgan topshiriq asosida shaxsan talaba tomonidan bajariladi.

4. Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun boshlang‘ich ma’lumotlar

Yeterli darajada to‘liq va aniq boshlang‘ich ma’lumotlarsiz “yaxshi” bitiruv malakaviy ishini yozib bo‘lmaydi. Shu sababli talaba bitiruv amaliyoti boshlanishiga qadar rahbari bilan qanday ma’lumotlarni yig‘ib kelishi haqida maslahatlashib olishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Odatda neft va gaz konlarining geologik tuzilishi, ishlash sistemasi, olinayotgan mahsulotlarni xossa va xususiyatlari, quduqlarning konstruksiyasi va ishlatisch usuli, mahsulotlarni yig‘ish va tayyorlash haqida juda ko‘p ma’lumotlar bo‘ladi. Shu sababli talaba bitiruv amaliyoti davrida bitiruv malakaviy ishini yozish uchun kerak bo‘ladigan ma’lumotlar haqida tasavvurga ega bo‘lishi va ortiqcha ma’lumotlarni yig‘ishga vaqtini sarflamasligi kerak.

Bitiruv malakaviy ishida, ilgari bajarilgan mustaqil ishlarning natijalari yoki boshqa mualliflarning (ilmiy ma’ruzalar va maqolalari, hisob-grafika ishlari, kurs ishlari va loyihalari, albatta, nomlari ko‘rsatilgan holda) ishlari, tahliliy-qiyosiy ma’lumotlar sifatida aks ettirilishi yoki ulardan foydalanishi mumkin.

Arxiv, axborot-resurs markazi va kafedralarda saqlanayotgan, **internet resurslaridan** foydalanib yoki konlarga tuzilgan loyiha hujjatlaridan va avval bajarilgan bitiruv malakaviy ishlaridan aynan **ko‘chirib** olinganligi rasmiy **himoyagacha** aniqlanib tasdig‘ini topgan bitiruv malakaviy ishlari kafedra mudiri **taqdimnomasiga** asosan Rektor buyrug‘i bilan bekor qilinadi.

5. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy qismi

Umumiylar tarzda bitiruv malakaviy ishi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi kerak:

- titul varag‘i;
- bitiruv ishiga topshiriq;
- mundarija;
- shartli belgililar ro‘yxati;
- kirish;
- 2 yoki 3 boblarga va paragraflarga bo‘lingan ishning asosiy qismi;

- iqtisod bo‘limi (iqtisodiy samaradorlikni hisoblash zarur bo‘lgan hollarda);
 - hayot xavfsizligi bo‘limi;
 - atrof-muhit muhofazasi bo‘limi;
 - xulosalar;
 - adabiyotlar ro‘yhati;
 - ilovalar (zaruriyat bo‘lganda).

Titul varag‘ida universitetning, fakultetning, kafedraning to‘liq nomi, bitiruv malakaviy ishining mavzusi keltirilib, himoyagacha kafedra mudiri, rahbari va talaba tomonidan imzolanishi kerak (1-ilova).

Bitiruv malakaviy ishiga topshiriq rahbar tomonidan tuziladi va talaba tomonidan qabul qilinadi, kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi. Talaba bitiruv malakaviy ishda qo‘yilgan vazifalarni mulohaza qilishi, boshlang‘ich ma’lumotlarni yig‘ishi va qayta ishlashi, maxsus adabiyotlar bilan tanishishga yetarli darajada vaqtি bo‘lishi uchun unga topshiriq amaliyotdan avval beriladi.

Bitiruv malakaviy ishiga topshiriq har bir talaba uchun individual bo‘lib, unda: talabaning familiyasi, ismi, otasining ismi; o‘qiyotgan guruhi; bitiruv malakaviy ishning mavzusi; ishlab chiqish rejalashtirilgan asosiy vazifalar; chizma tasvirlar va xaritalar ro‘yhati va bo‘limlarni bajarish muddatlari ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak (ilova 2).

Kirish qismida bitiruv malakaviy ishining maqsadi, uning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati, qo‘yilgan vazifalarni yechish usullari, olingan natijalar va ularni amaliy ahamiyati keltiriladi.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy qismi shartli ravishda uch bo‘limga (2-3 bobga) ajratiladi: geologiya, tahlil va texnik-texnologik hisoblar. Asosiy qism bitiruv malakaviy ishining 70-80 % ni tashkil etishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishida iqtisod bo‘limi bo‘lishi maqsadga muvofiq va u asosiy qismda ko‘rilgan texnik va texnologik savollar bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi kerak. Taklif etilgan tadbirlarni iqtisodiy baholanishi bitiruv malakaviy ishini tugallanganlik va amaliyotda foydalanish uchun tavsiyalarni asoslanganlik darajasini orttiradi.

Hayot xavfsizligi va atrof-muhit muhofazasi bo‘limlariga ushbu yo‘nalish kafedralari xodimlaridan tayinlangan maslahatchilar tomonidan rahbarlik amalga oshiriladi.

Iqtisod, hayot xavfsizligi va atrof-muhit muhofazasi bo‘limlarining har biri bitiruv malakaviy ishining 10 %gacha hajmini tashkil etishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining har bir bo‘limi muvofiq asoslar, qarorlar va xulosalar bilan yoritiladi.

Tushuntirish qismi (пояснительная записка) bitiruv malakaviy ishining mazmunini qisqa va muayyan shaklda ifodalashi lozim. Zaruriy hollarda tushuntirish qismiga grafiklar, rasmlar, eskizlar, diagrammalar, sxema va boshqalar, shuningdek, zaruriy qo‘s Shimcha axborot yozilgan elektron shakldagi ma’lumotlar ilova etilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishlarining tarkibiga bitiruv malakaviy ishining mavzusi, maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda elektron shakldagi taqdimot materiallari kiritilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tushuntirish qismi kamida 10-15 ming so‘z hajmida belgilanadi. Chizmalarning formati, shartli belgilari, shrift va masshtablari amaldagi standartlar talablariga qat’iy muvofiq kelishi zarur.

Bitiruv malakaviy ishining matni standart varaqda 1,5 qator oralig‘ida yozilishi kerak, har bir bet hoshiyasi: yuqoridan, pastdan va o‘ngdan 2 sm, chapdan 3 sm bo‘lishi, xatboshi besh yoki olti belgiga teng va bir xilda bo‘lishi lozim.

Bitiruv malakaviy ishining matnini kompyuter vositasida bosib chiqarishda “Times New Roman” 14 o‘lchamli shriftda yoki shunga o‘xshash shriftni qo‘llagan holda Microsoft Word matn redaktoridan foydalanish tavsiya qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishining hajmi titul varaq, mundarija, adabiyotlar ro‘yhati va ilovalardan tashqari 80 betdan oshmasligi lozim.

6. Bitiruv malakaviy ishning bajarilishi

Bitiruv malakaviy ishi, odatda, oliy ta’lim muassasasining, ushbu maqsadda maxsus ajratilgan xonalarida bajariladi. Ayrim hollarda, bitiruv malakaviy ishi korxonalar, muassasalar, ilmiy, loyihalash va boshqa amaliyot o‘tilgan va rahbar ishlayotgan muassasalarda bajarilishi ham mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining bajarilishi bo‘yicha talabaning hisobot berish muddatlarini dekanat nazorat etadi. Dekanat belgilagan muddatlarda, talaba bitiruv malakaviy ishining bajarilish holati haqida rahbar va kafedra mudiri oldida hisobot beradi. Kafedra mudiri bitiruv malakaviy ishining tayyorlik darajasini belgilaydi. Shu maqsadda kafedrada har bir bitiruvchining bitiruv malakaviy ishlarining bajarilish monitoringi tashkil etilib, uning bajarilish holati rahbarning haftalik

hisobotlari asosida foizlarda aniqlab boriladi.

Bitiruv malakaviy ishlarini bajarish bosqichlarida belgilangan muddatlardan kechikish hollari aniqlanganda ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralar kafedra mudiri tomonidan belgilanadi.

7. Bitiruv malakaviy ishiga taqrizlar

Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bitiruv malakaviy ishi (kompyuterda bajarilgan holda uning elektron varianti bilan birga) talaba tomonidan rahbarga taqdim etiladi. Rahbar, bitiruv malakaviy ishi talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildirgandan so'ng, ishni o'z taqrizi bilan birga kafedra mudiriga taqdim etadi. Taqrizda talabaning faolligi, qabul qilingan qarorlardagi yangiliklar va bitiruv malakaviy ishining boshqa ijobjiy tomonlari tavsiflanadi.

Himoyaga kirtilgan bitiruv malakaviy ishi tashqi taqrizga yuboriladi.

Taqrizchilar tarkibi bitiruvchilarga ish beruvchi soha mutaxassislari safidan tanlanadi. Taqrizchilar sifatida boshqa oliv ta'lim muassasasining professor va o'qituvchilari ham jalb etilishi mumkin.

Taqrizda mavzuning dolzarbliji, bitiruv malakaviy ishida ko'rilgan texnik, texnologik, iqtisodiy ishlanmalar darajasi, xulosa va tavsiyalarni asoslanganligini tavsiflanadi, hamda kamchiliklar ko'rsatiladi. Taqriz yakunida bitiruv malakaviy ishiga baho berilib, talabaga bakalavr malakaviy akademik daraja berish haqidagi fikr bildiradi.

8. Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish

Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bitiruv malakaviy ishi rahbar taqrizi bilan birga kafedra mudiriga taqdim etadi. Kafedra mudiri, taqdim etilgan materiallar asosida, bitiruv malakaviy ishini talaba tomonidan YAkuniy davlat attestatsiya komissiyasida himoya qilishga kiritish haqida qaror qabul qiladi.

Agar kafedra mudiri talabaning bitiruv malakaviy ishini himoyaga kiritish mumkin emas deb hisoblasa, masala kafedra majlisida, rahbar ishtirokida muhokama etiladi. Kafedra majlisining bayonnomasi tasdiq uchun fakultet dekani tomonidan Rektorga taqdim etiladi.

Fakultet dekani bitiruv malakaviy ishini taqriz bilan himoya uchun yakuniy davlat attestatsiya komissiyasiga taqdim etadi.

Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi oliv ta'lim muassasalari bitiruvchilarini yakuniy davlat

attestatsiyasi to‘g‘risidagi Nizom bilan belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishlar himoyasi zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida taqdimot (prezentatsiya) shaklida tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

Har bir bitiruv malakaviy ishning himoyasiga 30 daqiqa vaqt ajratiladi, uning 5 daqiqasi talabani, mavzuni, rahbarni va hujjatlarni to‘liqligi haqidagi ma’lumotlarni o‘qib eshittirishga, 10 daqiqa talabani ishi bo‘yicha taqdimotiga, 10 daqiqa savol javoblarga, 5 daqiqa taqrizni o‘qib eshittirishga va talabani taqrizda ko‘rsatilgan kamchiliklariga berilgan javobiga ajratiladi.

O‘zining taqdimotida talabaga bitiruv malakaviy ishining mavzusi, maqsadi, vazifalari, bajargan tahlili, texnologik va iqtisodiy hisoblari, olgan natijalari va xulosalari, hamda bergen tavsiyalarini yoritib berishi talab etiladi.

Taqdimotga kiritilgan chizmalarning formati, shartli belgilari, shrift va masshtablari amaldagi standartlar talablariga qat’iy muvofiq kelishi zarur, odatda chizmalar A2 formatli qog‘ozda (5-6 varaq hajmida) qalamda bajariladi yoki texnika vositalari orqali tayyorlanib, ekranda elektron doskada ko‘rsatiladi.

Talaba taqdimot qismlarini o‘zaro mantiqiy bog‘liqligiga, texnologik va iqtisodiy hisoblarning aniqligiga, xulosa va tavsiyalarni asoslanganligiga alohida ahamiyat berishi talab etiladi.

Talaba – ish muallifi, tanlangan qarorning to‘g‘riligiga va uning topshiriqqa muvofiqligiga, bitiruv malakaviy ishida ko‘chirmachilik holatini yo‘qligiga javob beradi.

Kafedraning tavsiyasiga binoan bitiruv malakaviy ishi chet tillarining birida bajarilishi mumkin. Chet tilda bajarilgan ishga davlat tilidagi annotatsiya ilova etiladi va himoya vaqtida tarjima ta’milnadi.

Bitiruv malakaviy ishlar mavzusi, mazmun-mohiyati va xususiyatlariga muvofiq ularning himoyasini tashkil etish va o‘tkazishning boshqa shakllari oliy ta’lim muassasasi Ilmiy kengashi tomonidan o‘rnatilishi mumkin.

Oliy ta’lim muassasasida axborot texnologiyalari vositasida taqdimot shaklida bitiruv malakaviy ishlar himoyasini tashkil etish uchun yetarli darajada maxsus jihozlangan auditoriyalar belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishi himoyasidan so‘ng (kamida 10 yil) oliy ta’lim muassasasida saqlanadi. Har xil sabablar bo‘yicha bitiruv malakaviy ishini boshqa tashkilot yoki xodimlarga topshirish zaruriyati mavjud bo‘lgan holda (tadbiq etish, tanlovlardan va hokazo), ishdan nusxa olinadi

va ularga mazkur nusxa beriladi, ishning asl nusxasi oliy ta'lim muassasasida qoldiriladi.

9. Bitiruv malakaviy ishini baholash me'zonlari

Bitiruv malakaviy ishini baholash ishlab chiqilgan va tasdiqlangan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Unga ko‘ra bitiruv malakaviy ishini baholash mezonlari ikki guruhga ajratilgan: 1 – bitiruv malakaviy ishini bajarilishining sifati; 2 – bitiruv malakaviy ishi himoyasi sifati.

Bitiruv malakaviy ishini bajarilishining sifatini baholash mezonlariga quyidagi talablar kiradi:

- bitiruv malakaviy ishini topshiriqqa mosligi;
- mavzuning dolzarbligini asoslanganligi va Respublika iqtisodiyoti talablariga mosligi;
- ishlanma berilgan iqtisodiy, ekologik, texnologik va texnikaviy afzalliklar darajasi;
- chizmalarni standart va me'yoriy talablarga rioya qilinganligi va zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanilgan holda bajarilganligi;
- tushuntirish – hisob ishi ravon tilda, grammatik va orfografik qoidalarga rioya qilingan holda bajarilganligi;
- Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga bevosita taalluqli bo‘lgan eng zamonaviy adabiyotlardan foydalanilganligi;
- xulosalarni asoslanganligi.

Bitiruv malakaviy ishi himoyasi sifatini baholash mezonlariga quyidagi talablar kiradi:

- himoyada bitiruv malakaviy ishining mazmunini bayon qilinganlik darajasi;
- Respublikamizning hozirgi ma’naviy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotidan boxabarligi;
- Respublikamiz xalq xo‘jaligidagi o‘zining kasbiy sohasidagi ahvol va rivojlanishning yo‘nalishidan xabardorligi;
- intellektual bilimlarining saviya darajasi;
- himoya jarayonida talabani o‘zini tuta bilishi.

Bitiruv malakaviy ishini yuqorida keltirilgan mezonlar asosida ballar sistemasida baholanadi. To‘plangan ballar 86-100 bo‘lganda – “a’lo”, 71-85 bo‘lganda – “yaxshi”, 55-70 bo‘lganda – “qoniqarli” va 55 baldan kam bo‘lganda “qoniqarsiz” deb baholanadi (ilova 3).

Foydalanilgan hujjatlar va adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalim vazirligining 9 iyun 2010 yildagi № 225 “Oliy ta’lim muassasalarida bakalavr larning bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo‘yiladigan talablarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i.

2. Методические рекомендации по выполнению выпускной квалификационной работы бакалавра физико-математического образования. Rudocs.exdat.com/docs/index-559810.html.

3. Требованию к уровню подготовки бакалавра по направлению «Нефтегазовое дело». spmi.ru/System/files/lib/abiturient/Program/Vypusknaya.

4. Требования к выпускной квалификационной работе бакалавра. mipt.ru/dpge/for_students/f_27_vmvg/diplom/a_1x2n/8.php.

5. Требования к выпускной квалификационной работе бакалавра для направления подготовки “Экономика” и “Менеджмент”. www.csaa.ru/about/section/umu/umu-doc/1338-trebovaniya.html.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti

Neft va gaz fakulteti

“Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish” kafedrasи

(Bakalavrning familiyasi, ismi - sharifi)

(Bitiruv malakaviy ishining mavzusi)

(Yo‘nalish shifri va nomi)

yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Kafedra mudiri:

(ilmiy unvoni, f.i.sh.)

Rahbar:

(ilmiy unvoni, f.i.sh.)

Toshkent – 201_

**Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Toshkent Davlat texnika universiteti
Neft va gaz fakulteti**

**“Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish” kafedrasи
Tasdiqlayman
Kafedra mudiri**

«___» ____ 201_ y.

**BITIRUV MALAKAVIY ISHINI BAJARISHGA
TOPSHIRIQ**

Talaba: _____

1. Bitiruv malakaviy ishi mavzusi: _____

«___» ____ 201_ y. kafedra yig‘ilishida tasdiqlangan

2. Bitiruv malakaviy ishini bajarish muddati _____

3. Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun ma’lumotlar: _____

**4. Bitiruv malakaviy ishining hisob-tushuntirish qismlarining tarkibi, tartibi
(ko‘rيلотган савollar тартиби)** _____

**5. Bitiruv malakaviy ishining grafik qismi tartibi (chizmalar nomi to‘liq
ко‘rsatiladi)** _____

6. Bitiruv malakaviy ishi bo‘yicha maslahatlar

№	Qismlar mavzusi	Maslahatchchi F.I.SH.	Kun, imzo	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi
1				
2				

7. Bitiruv malakaviy ishini bajarilishi va himoyaga tayyorlash

№	Bitiruv malakaviy ishini tarkibi	Bajarilish muddati va vaqtি	Bajarilganligi bo‘yicha belgi
1			
2			

Ilmiy rahbar: _____

Topshiriqni oldim: _____

Topshiriq berildi “___” ____ 201_ y

“5311900 – Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish”
bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruv malakaviy ishini baholash mezonlari

Ball	Bitiruv malakaviy ishini baholash
86-100	<p>1. Bitiruv malakaviy ishini bajarilishining sifati:</p> <p>bitiruv malakaviy ishi topshiriqqa to‘liq mos; mavzu dolzarbligi to‘liq asoslangan, Respublika iqtisodiyoti talablariga mos; ishlanma beradigan iqtisodiy, ekologik, texnologik va texnikaviy afzalliklar yuqori darajada; chizmalar standart va me’yoriy talablarga to‘liq rioya qilingan, zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanilgan holda bajarilgan; tushuntirish-hisob ishi ravon tilda, grammatik va orfografik qoidalarga rioya qilingan holda bajarilgan; eng zamonaviy, Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga bevosita taalluqli bo‘lgan adabiyotlardan foydalanilgan; xulosalar to‘liq asoslangan.</p> <p>2. Bitiruv malakaviy ishi himoyasi sifati:</p> <p>himoyada bitiruv malakaviy ishining mazmuni to‘liq va batafsil bayon qilindi; savollarga aniq, to‘liq va mazmunli javob berildi; Respublikamizning hozirgi ma’naviy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotidan to‘liq boxabar; Respublikamiz xalq xo‘jaligidagi o‘zining kasbiy sohasidagi ahvol va rivojlanishning yo‘nalishidan to‘liq xabardor; intellektual bilimlarining saviyasi yuqori darajada; himoya qilayotgan talaba o‘zini yaxshi tuta bildi.</p>
71-85	<p>1. Bitiruv malakaviy ishini bajarilishining sifati:</p> <p>bitiruv malakaviy ishi topshiriqqa asosan mos; mavzu dolzarbligi asosan to‘liq asoslangan, Respublika iqtisodiyoti talablariga asosan mos; ishlanma yetarli darajada asosan to‘liq asoslangan; ishlanma beradigan iqtisodiy, ekologik, texnologik va texnikaviy afzalliklar yetarli darajada; ishlanma hisoblari zamonaviy usullarga asosan to‘liq mos ravishda bajarilgan; tushuntirish-hisob ishi asosan grammatik va orfografik qoidalarga rioya qilingan holda bajarilgan; chizmalar standart va me’yoriy talablarga asosan rioya qilingan holda bajarilgan; zamonaviy, Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga bevosita taalluqli bo‘lgan adabiyotlardan foydalanilgan; xulosalar asosan to‘liq asoslangan.</p> <p>2. Bitiruv malakaviy ishi himoyasi sifati:</p>

	<p>himoyada bitiruv malakaviy ishining mazmuni asosan to‘liq bayon qilindi;</p> <p>savollarga asosan to‘liq va mazmunli javab berildi;</p> <p>Respublikamiz xalq xo‘jaligidagi o‘zining kasbiy sohasidagi ahvol va rivojlanishning yo‘nalishidan asosan xabardor;</p> <p>intellektual bilimlarining saviyasi yetarli darajada;</p> <p>himoya qilayotgan talaba o‘zini qoniqarli tuta bildi.</p>
55-70	<p>1. Bitiruv malakaviy ishini bajarilishining sifati:</p> <p>bitiruv malakaviy ishi topshiriqqa deyarli mos;</p> <p>mavzu dolzarbligi deyarli to‘liq asoslangan, Respublika iqtisodiyoti talablariga deyarli mos;</p> <p>ishlanma qoniqarli darajada asoslangan;</p> <p>ishlanma beradigan iqtisodiy, ekologik, texnologik va texnikaviy afzalliklar qoniqarli darajada;</p> <p>chizmalar standart va me’yoriy talablarga qoniqarli darajada bajarilgan;</p> <p>tushuntirish-hisob ishida grammatik va orfografik xatolar mavjud;</p> <p>xulosalar qoniqarli darajada asoslangan.</p> <p>2. Bitiruv malakaviy ishi himoyasi sifati:</p> <p>himoyada bitiruv malakaviy ishining mazmuni qoniqarli bayon qilindi;</p> <p>savollarga qoniqarli javob berildi;</p> <p>Respublikamizning hozirgi ma’naviy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotidan boxabarligi darjasini qoniqarli;</p> <p>Respublikamiz xalq xo‘jaligidagi o‘zining kasbiy sohasidagi ahvol va rivojlanishning yo‘nalishidan xabardorligi qoniqarli;</p> <p>intellektual bilimlarining saviyasi qoniqarli darajada;</p> <p>himoya qilayotgan talaba o‘zini qoniqarli tuta bildi.</p>
0-54	<p>1. Bitiruv malakaviy ishini bajarilishining sifati:</p> <p>bitiruv malakaviy ishi topshiriqqa mos emas;</p> <p>mavzu dolzarbligining asoslanishi va Respublika iqtisodiyoti talablariga mos emas;</p> <p>ishlanma yetarli darajada asoslanmagan;</p> <p>ishlanma beradigan iqtisodiy, ekologik, texnologik va texnikaviy afzalliklarga ega emas;</p> <p>ishlanma hisobi talablar doirasiga javob bermaydi;</p> <p>chizmalar standart va me’yoriy talablarga mos kelmaydi;</p> <p>tushuntirish-hisob ishida grammatik va orfografik xatolar mavjud;</p> <p>xulosalar etarli darajada asoslanmagan.</p> <p>2. Bitiruv malakaviy ishi himoyasi sifati:</p> <p>bitiruv malakaviy ishini himoya qilish mazmuni va sifati qoniqarsiz darajada;</p> <p>savollarga qoniqarsiz javob berildi;</p> <p>himoya qiluvchining zamonaviy kommunikatsiyalardan foydalanishi darjasini qoniqarsiz.</p>

MUNDARIJA

1	Bitiruv malakaviy ishini bajarishning maqsad va vazifalari.....	3
2	Bitiruv malakaviy ishlarining mavzusi	3
3	Bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbarlik qilish	4
4	Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun boshlang‘ich ma’lumotlar	5
5	Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy qismi	5
6	Bitiruv malakaviy ishning bajarilishi	7
7	Bitiruv malakaviy ishiga taqrizlar	8
8	Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish	8
9	Bitiruv malakaviy ishini baholash mezonlari	10
10	Foydalilanilgan hujjatlar va adabiyotlar	11
11	1-ilova	12
12	2-ilova	13
13	3-ilova	14

Muharrir: Sidikova K.A.

Muharrir: Adilxodjayeva Sh.